



## BERNARD SHOU DRAMATIK ASARLARIDA MORFOLOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING LINGVOSTILISTIK FUNKSIYALARI

Abbasova Nargiza Kabilovna

FarDU katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Juraeva Gulrukh Baxtiyorovna

Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bitiruvchisi

gulrukhjuraeva279@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17404967>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 21-oktabr 2025 yil

### KEYWORDS

Morfologik innovatsiyalar, neologizmlar, so'z yasash, affiksatsiya, qo'shma so'zlar, lingvostilistika, Bernard Shou, Shekspir, Charlz Dikens, Jeyms Joys, Jorj Orvell, dramaturgiya, satira, kinoya, ijtimoiy tanqid, qahramon xarakteri, tilning boyishi, noan'anaviy shakllar, lingvopoetika, so'z o'yini, uslubiy yangilik, ifodaviy til, ijtimoiy qadriyatlar, dramatik dialog..

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ingliz adabiyotida, xususan, Bernard Shou dramatik asarlarida morfologik innovatsiyalarning lingvostilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda morfologik innovatsiyalar – yangi so'z yasash usullari, prefiks va suffikslar orqali hosil qilingan neologizmlar, qo'shma so'zlar hamda grammatik me'yorlarni buzib ishlatish natijasida yuzaga kelgan lingvistik birliklar sifatida izohlanadi. Shakespir, Dikens, Joys va Orvell ijodidagi so'z yasash innovatsiyalarining tahlili orqali Bernard Shouning dramaturgiyasidagi morfologik yangiliklar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Maqolada Shou asarlarida morfologik innovatsiyalarning ijtimoiy-tanqidiy, satirik, kinoyaviy va estetik vazifalari yoritiladi. "Un-English", "pseudo-gentleman", "undramatical" kabi so'zlar misolida yozuvchi tomonidan qo'llangan prefiksatsiya, noan'anaviy shakllar va morfologik o'yinlar tahlil qilinadi. Ushbu innovatsiyalar orqali Shou jamiyatdagi soxta qadriyatlarni fosh etadi, qahramon xarakterlarini ochadi va dramatik dialoglarni jonlantiradi.*

Morfologik innovatsiyalar – bu tilda yangicha so'z yasash usullari, yangi affikslar, qisqartmalar, qo'shma so'zlar yoki noan'anaviy shakllar orqali yaratilgan so'zlardir. Adabiyotda ular ko'pincha stilistik yangilik kiritish, qahramonning xarakterini ochish, satira yoki irodiya yaratish, muayyan davr ijtimoiy-madaniy muammolarini yoritish uchun ishlatiladi.

William Shakespir XVI–XVII asr - Shakespir ko'plab yangi so'zlar yasagan. Ularning ko'pchiligi hozirgi ingliz tilida ham ishlatiladi.

*Lonely* (yolg'iz) – Shakespir tomonidan birinchi marta ishlatilgan.

*Majestic, gloomy, dwindle* – yangi sifatlar va fe'llar yaratgan.

Shakespir neologizmlarni asosan affiksatsiya (suffix -ly, -ness) va konversiya (otdan fe'l yasash) orqali yaratgan. Bu morfologik innovatsiyalar adabiy tilda boyish va ifodaning yangilanishiga xizmat qilgan. Charles Dickens XIX asr - Dickens o'zining ijtimoiy-satirik romanlarida yangi so'zlarni o'ylab topgan.

*Bumbledom* – parish beadle shaxsidan kelib chiqqan, “byurokratik ahmoqlik” ma’nosida. *Podsnappery* – personaj Podsnap ismiga -ery qo’shimchasini qo’shib, “o’zini ustun qo’yish odati”ni bildirgan. Bu yerda antroponim va morfemalashuv usuli qo’llanilgan. Dickens qahramon ismlarini morfologik asos sifatida olib, ularni umumiy ijtimoiy fenomenlarga aylantirgan. Bernard Shou o’z pyesalarida ijtimoiy tanqid uchun so’z yasashdan foydalangan. “Don Juan in Hell” sahnasida u “*undramatical*” kabi oddiy grammatik me’yorlarni buzib ishlatadi. Ko’pincha prefix qo’shish orqali ironik so’zlar yaratadi, masalan: *un-English*, *pseudo-gentleman*.

Shou yangi morfologik shakllar bilan jamiyatdagi soxta qadriyatlarni tanqid qiladi. Bunda negativ prefiks (un-, pseudo-) ijtimoiy kinoyani kuchaytiradi.

*Scrotumtightening*– qo’shma va affiksatsiya orqali yangi emotsional effekt yaratilgan. Joyce morfologik innovatsiyalarni eksperimental lingvistika sifatida qo’llagan, ya’ni so’z yasash orqali o’quvchini ong oqimiga tortadi.

Jorge Orvell XX asr “1984” romanida yangi so’zlar: *Newspeak* – yangi siyosiy til tizimi. *Doublethink*, *thoughtcrime* – qo’shma so’zlar orqali totalitar mafkura ifodasi. Orvell morfologik innovatsiyalarni siyosiy nazariya va mafkuraviy tanqid vositasi sifatida ishlatgan.

Ingliz adabiyotining XX asr boshlarida yuksalishida Bernard Shou alohida o’rin tutadi. Uning dramatik asarlari nafaqat ijtimoiy-tanqidiy mazmuni, balki lingvopoetik jihatlari bilan ham qimmatlidir. Shou pyesalarida ijtimoiy dialektlar, jargon, paremiologik birliklar va morfologik innovatsiyalar keng qo’llangan.

Morfologik innovatsiyalar – bu adabiyotda yangi so’z yasash usullari, prefiks va suffiks orqali hosil qilingan neologizmlar, qo’shma so’zlar yoki til me’yorini buzib ishlatish natijasida yuzaga kelgan yangi birliklardir. Ular Shou dramaturgiyasida satira, kinoya va ijtimoiy tanqidni kuchaytiruvchi lingvostilistik vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Bernard Shou asarlarida kuzatiladigan morfologik innovatsiyalar uning dramaturgiyasini boshqa yozuvchilardan ajratib turadi va tilshunoslikda yangicha tahlil yo’nalishlarini taqozo etadi. Morfologik innovatsiyalar til taraqqiyotida muhim jarayonlardan biridir. Ular adabiyotda quyidagi vazifalarni bajaradi: tilni boyitish, personaj xarakterini ochish, ijtimoiy-tanqidiy maqsadlarni kuchaytirish, o’quvchida estetik va emotsional ta’sir uyg’otish.

Shakespeare davridan boshlab Dickens, Joys, Orsell kabi yozuvchilar morfologik innovatsiyalardan keng foydalangan. Bernard Shou ham bu an’anani davom ettirgan. Shakespeare: *lonely*, *majestic*, *gloomy* kabi so’zlarni yasab, tilda yangilik kiritgan.

Dikens: *Bumbledom*, *Podsnappery* kabi personaj ismlaridan yangi tushunchalar yaratgan.

Orvell: *Newspeak*, *doublethink*, *thoughtcrime* kabi qo’shma so’zlar bilan totalitar jamiyatni tanqid qilgan.

Bernard Shou o’z pyesalarida yangi so’z yasashning turli usullaridan foydalangan: Prefiks orqali neologizmlar: *un-English*, *pseudo-gentleman*, *unromantic hero* kabi shakllar. Bu yerda *un-* va *pseudo-* qo’shimchalari ijtimoiy kinoya yaratadi. Noan’anaviy shakllar: *undramatical* so’zi oddiy grammatik me’yorlarni buzgan holda ishlatiladi va bu orqali Shou teatrning “ortiqcha dramatik” tamoyillarini masxara qiladi. Ironik qo’shma so’zlar: ba’zi pyesalarda Shou yangi qo’shma so’zlar yasab, jamiyatdagi soxta qadriyatlarni fosh qiladi. Dialoglarda morfologik o’yin: Shou personajlari ko’pincha so’z yasash bilan shug’ullanib, o’z fikrini kuchliroq ifodalaydi.

Masalan, *Heartbreak House* asarida qahramonlar “pseudo-intellectual” atamasi orqali jamiyatdagi ma’naviy inqirozni tanqid qiladi.

1.Satira vositasi – prefikslar yordamida ijtimoiy soxta qadriyatlarni masxara qiladi.

2.Qahramon xarakterini ochish – nutqiy innovatsiyalar orqali personajning ijtimoiy pozitsiyasi aniqlanadi.

3.Dialog dinamizmini kuchaytirish – yangi so‘zlar dramatik konfliktni kuchaytiradi.

4.Til boyitilishi – Shou dramalari ingliz tilida yangi birliklarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

#### **Xulosa**

Bernard Shou dramatik asarlarida morfologik innovatsiyalar muhim stilistik rol o‘ynaydi. Ular orqali: jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar kinoyaviy tarzda yoritiladi, qahramonlarning individual nutqiy xususiyatlari ochib beriladi, dramaturgiya tilining boyligi va yangiligi ta’minlanadi.

Morfologik innovatsiyalarni o‘rganish Bernard Shou ijodining lingvopoetik qirralarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu yondashuv adabiyotshunoslik va lingvistik tahlilning kesishgan nuqtasida yangi ilmiy natijalar olish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shaw B. *Pygmalion and Other Plays*. London: Penguin Classics, 2003.
2. Shaw B. *Heartbreak House*. London: Penguin, 2001.
3. Dickens Ch. *Oliver Twist*. London: Chapman & Hall, 1838.
4. Joyce J. *Ulysses*. Paris: Shakespeare and Company, 1922.
5. Orwell G. *Nineteen Eighty-Four*. London: Secker & Warburg, 1949.
6. Shakespeare W. *The Complete Works*. Oxford: Clarendon Press, 1986.
7. Crystal D. *The Stories of English*. London: Penguin, 2005.
8. Katamba F. *English Words: Structure, History, Usage*. London: Routledge, 2005.